

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NURITDINOVA XURSHIDA NORPO‘LATOVNA

**TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Nuritdinova Xurshida Norpo'latovna

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish.....3

Нуритдинова Хуршида Норпулатовна

Развитие коммуникативной компетенции студентов.....20

Nuritdinova Xurshida Norpulatovna

Development of students' communicative competence.....38

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....42

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NURITDINOVA XURSHIDA NORPO‘LATOVNA

**TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped4820 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) www.tdpu.uz veb-sahifasining va «ZiyoNet»elektron ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo'raevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.) Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z. N .Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.n.dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion modellari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim texnologiyalarini qo'llash, talabalarni kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlash jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim sifatini ta'minlashning pedagogik, didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini, o'qitishning variativ shakllari hamda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishda ilg'or modellarni joriy qilish, kadrlar resurslarini yaratish strategiyalarini isloh qilish, ta'lim jarayonini modellashtirish, uzluksiz kasbiy sifatlarni va kompetensiyalarni rivojlantiruvchi ta'limiy faoliyatni takomillashtirish, o'quv jarayoni sifatiga qo'yiladigan talablar mazmunini boyitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, talabalarning kommunikativ kompetentligi va kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarning kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlash, talabalarning kommunikativligini shaxsiy faollik asosida rivojlantirish, ta'lim subyektlarining o'zaro hamkorligini shakllantirishning ilg'or modellarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, oliy ta'limning o'quv-metodik bazasini takomillashtirib borishni muvofiqlashtirish hamda o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari faoliyati natijadorligini muntazam o'rganib borish va o'rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish»² ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Natijada, barcha sohalar uchun zarur yetakchi kadrlar tayyorlash, xususan, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son Farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>

60-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 son, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarning kompetentligini takomillashtirish B.S.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, A.R.Aripjanova, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, A.A.Xalikov, X.S.Bakiyeva, S.Matchonov, O.To‘raqulov, U.A.Masharipova, A.A.Urazimbetova, A.G‘ulomov; ta‘lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish N.T.Kuchimova, F.E.Sattorova, D.R.Pulatova tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalarining ilmiy-nazariy asoslari I.I.Barakovich, V.I. Baydenko, L.N.Bogolyubov, A.S.Budnik, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, G.I.Mixalevskaya, E.F.Zeyer, L.M.Mitina, B.Oskarson, M.V.Rijakov,³ V.M.Sokolov, V.V. Sokolova, V. Xutmaxer; muloqotning pedagogik nazariyasi N.A.Kobzeva, V.I.Grachev; pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik nazariyasi Ye.P.Turbina, I.N.Korzennikova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Kompetent mutaxassis va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish muammolari yuzasidan Bonimar T.Afalla, Fitzgerald L.Fabelico, M.Byram, Gabriyela Kelemen, Rodrigo Lozano, Michelle Merrill, R.Lozano, S.J.Savignonlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

³ Рыжаков, М.В. Ключевые компетенции в стандарте: возможности реализации / М.В. Рыжаков // Стандарты и мониторинг в образовании. -1999.-№4.-С.20-23.

tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy).

Tadqiqotning maqsadi talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika institutidan 285 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, o‘quv reja, fan dasturlari, darsliklar, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari universal - kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni axborotga sezgirlik, amaliyotga bo‘lgan ijodiy munosabatiga aloqadorligini barqaror ta’minlash hamda ta’lim taraqqiyoti tendensiyalariga idientiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli motivatsion-rag‘batlantiruvchi yo‘nalganlikning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda qulay ta’lim muhitini yaratish jarayonini ta’limning istiqbolli maqsadlariga mos uyg‘unligini adekvat ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari kommunikativ yo‘naltirilgan, bilimlarni yangilanishi va mantiqiy kompozitsion ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan hamda bilishga stimulyatsiya beradigan o‘yinlar, treninglardan foydalanishga qaratilgan muloqot madaniyati kursini bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlari rejalashtirish, ijtimoiy harakatchanlik qobiliyatlarini refleksiv baholash hamda tashkiliy-didaktik komponentlarining mobilligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishga doir texnologiyalar va ularni qo‘llash mexanizmlari takomillashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligining rivojlanganligini baholash mezonlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan nazariy xulosalar, tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini mazmunan boyitishga, fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning didaktik mazmunining ilmiy-nazariy asoslanganligi, talabalarning kommunikativ kompetentligining rivojlanganligini baholash mezonlari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-pedagogik tavsiyalar talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar mazmunini boyitish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari universal - kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni axborotga sezgirlik, amaliyotga bo'lgan ijodiy munosabatiga aloqadorligini barqaror ta'minlash hamda ta'lim taraqqiyoti tendensiyalariga idientiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-avgustdagi 02-07-3274/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etishga sharoit yaratilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli motivatsion-rag'batlantiruvchi yo'nalganlikning ob'ektiv va sub'ektiv omillarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda qulay ta'lim muhitini yaratish jarayonini ta'limning istiqbolli maqsadlariga mos uyg'unligini adekvat ta'minlash asosida takomillashtirishga oid xulosalar PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-avgustdagi 02-07-3274/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlarini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari kommunikativ yo‘naltirilgan bilimlarni yangilanishi va mantiqiy kompozitsion ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan hamda bilishga stimulyatsiya beradigan o‘yinlar, treninglardan foydalanishga qaratilgan muloqot madaniyati kursini bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-avgustdagi 02-07-3274/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlari rejalashtirish, ijtimoiy harakatchanlik qobiliyatlarini reflektiv baholash hamda tashkiliy-didaktik komponentlarining mobilligini ta’minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-20170923121 raqamli “Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-avgustdagi 02-07-3274/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish strukturaviy modelini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari, ijtimoiy ahamiyati, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik jihatlari bayon qilingan.

Zamonaviy ta’limning maqsad vazifalarini belgilashda hamda uning natijalariga

erishishda kompetentlikka asoslangan ta'limning konseptual-metodologik asoslarini, modellarini ishlab chiqish, mavjud ta'lim mazmuni, strukturasi, tashkiliy tomonini modernizatsiya qilishga e'tibor kuchayib bormoqda.

Kommunikativ kompetentlikga doir masalalarni tadqiq qilgan tadqiqotchilar ilmiy ishlarida kommunikativ kompetentlikni shaxsning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish uchun eng muhim kompetentliklardan biri deb qayd qiladilar. Tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikga shaxsning shaxsiy hususiyatlari va o'zaro faoliyatning real vaziyatlarida muloqot tajribasi ta'siri ostida ma'lum tarzda rivojlanish natijasi sifatida qaraladi.

Tahlillar asosida ma'lum bo'ldiki, kommunikativ kompetentlik inson faoliyat turidan qat'iy nazar zarur bo'lgan tayanch kompetentlikdan biri. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikni bo'lajak mutaxassisning umumiy kasbiy kompetentligi strukturasi alohida bir bo'lim sifatida tushunish mumkin. Kommunikativ kompetentlikni umumiy kasbiy kompetentlik strukturasi o'rnini o'rganish asosida ma'lum bo'ldiki, u har qanday faoliyatda muayyan kommunikativ malakalar va ko'nikmalar - jamoada ishlash, nizoli vaziyatlarni hal qilish, o'zaro faoliyatga hamkorlikda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

X.Ibragimovning fikricha, kommunikatsiya bu birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi. Kommunikativ kompetensiya – shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir.

E.S.Kuzminning ta'kidlashicha, kommunikativ kompetentlik insonning tabiiy ijtimoiylashuv, ta'lim olishi va tarbiya olishi davomida olinadigan bilimlar, til va tilga mansub bo'lmagan muloqot malaka va ko'nikmalarni anglatadi.

Kommunikativ kompetentlik kasbiy faoliyatning har qanday sohasida atrofidagi kishilar o'rtasida o'zaro qulay faoliyatda bo'lish, mutaxassisning umumiy kasbiy kompetentligi strukturasi kompetentlikning barcha turlarining kommunikativ xarakterini namoyon qiladi. Muloqot hayotimiz va faoliyatimizning barcha tomonlari, jabhalariga kirib borgan uchun kommunikativ kompetentlik jamiyatdagi muvaffaqiyatli hayotiy faoliyatni ta'minlaydi. Kommunikativ kompetentlik atrofidagi kishilar bilan o'zaro faoliyatda tolerant xulq-atvor tamoyillariga amal qiladi, kasbiy faoliyat sohasida kishilarning guruhiy birligi va hamkorligiga hissa qo'shadi, inson individualligining namoyon bo'lish shakllarini, shaxsiy o'z imkoniyat, qobiliyatlari hamda salohiyatlarining amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlikni muloqotni qo'yilgan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan samarali amalga oshirish imkonini beradigan kommunikativ malakalar va ko'nikmalar yig'indisi sifatida tushunish mumkin deb ta'kidlaydilar.

Pedagog uchun o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ malakalarni to'laqonli ajratib ko'rsatishga intilishda tadqiqotchilar ko'pincha ularning kommunikativ kompetentlikning yoxud nutqiy tomoniga, yoxud o'qituvchining kommunikativ xulq atvorini tavsiflaydigan malakalarni batafsil tasvirlashga asosiy e'tibor berishadi. Kommunikativ kompetentlikni kommunikativ malakalarning majmui deb tushunish ularning ma'lum bir tarzda tizimlashtirilishini talab qiladi, va bu ularning kommunikativ va umumiy kasbiy kompetentlikning strukturasi o'rnini va ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Kommunikativ malakalarni tizimlashtirish pedagogning kasbiy kompetentligining faoliyat tabiatini hamda uning kommunikativ malakalarning shakllanganligiga, ya'ni – kommunikativ malakalar majmui orqali amalga oshiriladigan kommunikativ kompetentlikka bog'liq ekanligiga urg'u berib ko'rsatish imkonini beradi.

Kommunikatsiya pedagogdan o'z ustida uzluksiz ishlashni, o'zini mustaqil yangilashni va o'qituvchi shaxsini mustaqil takomillashtirishni talab qiladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining o'z qobiliyatlarini anglashi, pedagogning o'zining va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilarining uning faoliyatidan qoniqqanlik darajasi bilan bog'liq. Pedagogik refleksiya o'qituvchiga ta'lim va tarbiya berishda istalgan va ijtimoiy-maqbul natijalarga tahsil oluvchilarning shaxsiy, motivatsion va boshqa hususiyatlarini, ularning fikrlash xususiyatlari va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda shaxslararo o'zaro faoliyatni qurish yo'li bilan erishish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetentlikni har qanday ta'lim darajasi hamda ixtisosligida zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashning natijalaridan biri sifatida o'rganish kerak: mutaxassisni har qanday kasbiy sohada kommunikativ faoliyatga tayyorlashdagi ustuvor maqsadlar-natijalar sifatida ajratib olish; ularni kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari sifatida o'rganish. Tadqiqot ishida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari universal - kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni axborotga sezgirlik, amaliyotga bo'lgan ijodiy munosabatiga aloqadorligini barqaror ta'minlash hamda ta'lim taraqqiyoti tendensiyalariga idientiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish muloqot yordamida amalga oshiriladi. Muloqot subyekting tanloviga qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hodisa sifatida - birinchi navbatda o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hisoblanadi, chunki uning maqsadlari va funksiyalari ijtimoiy hisoblanadi – u odamlarni kuzatishga, ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga va o'zaro tushunish va faoliyatning umumiy natijalariga erishishga yo'naltirilgan, shuningdek, u shaxsning madaniyatga kirishining, ijtimoiylashuvining, ularning psixik va ijtimoiy shakllanishining eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Muloqotning ijtimoiy tabiati haqida gap ketganda biz, birinchi navbatda pirovard natijada muloqotning maqsadlari hamda vazifalari ijtimoiy xarakterga ega ekanligi ular muloqot subyekti kim bo'lishidan –alohida olingan shaxs yoki ijtimoiy guruhidan qat'iy nazar ijtimoiy tabiatiga ko'ra ijtimoiy ekanligi haqidagi haqiqatni nazarda tutamiz. O'zaro faoliyat davomida alohida olingan kishilarning maqsadlari ijtimoiy ahamiyatli maqsadlarga aylanadi, chunki insonlar orasidagi har qanday muloqot umumiylik, natijaga erishishga insonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga, o'zaro tushunishga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, bu nafaqat shaxsiy ahamiyatga ega balki ijtimoiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini tadqiq qilishda talabaning shaxsi sohasining ustuvorligini rivojlantirish, muayyan o'quv vazifalarini belgilay olish, ta'lim ehtiyojlari, imkoniyat, o'zaro faoliyat, sub'ektiv tajribalarni o'zlashtirish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Kommunikativ kompetentlikni umumiy kasbiy kompetentligi tizimning bir komponenti sifatida o'rganishda, ushbu tizimning bir qismi sifatida, kommunikativ kompetentlik ma'lum bir strukturaviy murakkabligini nazarda tutishi shartligini va o'z navbatida, o'z quyiroq darajadagi quyi tizimlarni strukturaviy komponentlari sifatida o'z

ichiga oladigan tizimni taqozo etishi shartligini aytish lozim, chunki har qanday tizim kommunikativ kompetentlikning strukturaviy komponentlar tizimini o'z ichiga oladi.


Demak, kommunikativ kompetentlik murakkab tuzilma sifatida namayon bo'ladi hamda nutqiy, til (lisoniy) va ijtimoiy-madaniy kompetentliklarni o'zining quyi tuzilmalari sifatida o'ziga qamrab oladi. Bunda, kommunikativ kompetentlik tarkibidagi kompetentliklarning alohida turlarini kommunikativ kompetentlikning xususiyatlari bilan solishtirish mumkin: nutqiy hamda til kompetentliklari kommunikativ kompetentlikning lingvistik jihatining o'zini tavsiflashini, ijtimoiy-madaniy kompetentlik esa shaxsning kommunikativ xulq-atvori masalalari bilan solishtirilishini ta'kidlash lozim.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tizimi”** ikkinchi bobida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shart-sharoitlari hamda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli bayon qilingan.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda talablar bitiruvchi faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga kelayotgan muammolarni yechish uchun aktuallashtirishi lozim bo'lgan malakalar majmuida ifodalanadi. Shu tariqa, kompetentlikning xar bir turini kompetentlikning mavjudligini va rivojlanganlik darajasini nafaqat qayd etish, balki baholash imkonini beruvchi muayyan malakalarning majmuida taqdim etish, tushunish mumkin.

Muloqot jarayonida individ motivga, qaror qabul qilishga, alohida amallarni bajarishga va ularni nazorat qilishga, ya'ni o'z sherigining faoliyatining barcha “tarkibiy qismlariga” ta'sir ko'rsatishi mumkin, va shu munosabat bilan xulq-atvorni o'zaro tartibga solish va o'zaro isloh qilish amalga oshadi. Muloqot sharoitlarida psixikaning tartibga soluvchi (regulyativ) vazifasi namoyon bo'ladi. Muloqot tufayli individ nafaqat o'zining xulq atvorini, balki boshqa shaxslarning xulq atvorini ham tartibga solish, hamda bu bilan birga ular tomonidan tartibga soluvchi (regulyatsion) ta'sirlarni his qilish imkoniyatini beradi. Aynan o'zaro tartibga solish (regulyatsiya) jarayonida birgalikda amalga oshiriladigan faoliyatga xos fenomenlar shakllanadi hamda ular namoyon bo'ladi: turli psixologik xossalarga taalluqli bo'lishi bilan turli darajalarga, faoliyatning umumiy uslubiga, amallarning sinxronizatsiyasiga ega bo'lgan kishilarning bir biriga mos kelishi va hokazo” muloqotning xususiyatlarini ko'rsatib o'tishadi.

Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy vazifalarini yechish va shu munosabat bilan talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ishlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradigan kommunikativ kompetentlikning strukturaviy modelini ishlab chiqish masalalari o'rganildi hamda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli motivatsion-rag'batlantiruvchi yo'nalganlikning ob'ektiv va sub'ektiv omillarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda qulay ta'lim muhitini yaratish jarayonini ta'limning istiqbolli maqsadlariga mos uyg'unligini adekvat ta'minlash asosida takomillashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning strukturaviy modeli

Tahlillar asosida kommunikativ kompetentlikning strukturasi: nazariy, amaliy va shaxsiy kabi uch blokni ajratish zarur. Bunda kommunikativ kompetentlikka shaxsning muloqotni amalga oshirish imkonini beradigan va o'zaro tushunish hamda muloqot vazifalarini samarali yechishga erishishga yordam beradigan bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlar to'plamini o'z ichiga oladigan integral tavsifi deb ta'rif berish mumkin. Bir vaqtning o'zida, kommunikativ kompetentlik strukturasi har bir blokning o'z strukturaviy tashkil etilganligiga ega.

Xususan, kommunikativ kompetentlikning nazariy bloki muloqotga oid bilimlar to'plamini nazarda tutadi – muloqotning asosiy kommunikativ vazifalarini, usullari, bosqichlari, uslublarini, muloqotdagi o'rni nuqtai nazarlarini bilishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetentlik strukturasi amaliy blok ijtimoiy-psixologik, mantiqiy-kompozitsion va nutqiy kommunikativ malakalarini o'z ichiga oladi. Pedagogning muloqotga oson kirishib ketishi, refleksiv fikrlashi va empatiyasi mutaxassisning, xususan pedagogning samarali o'zaro faoliyatga yordam beradigan shaxsiy xossalari va sifatlarining majmuining asosiy xossa va sifatleri hisoblanadi. Pedagogning muloqot subyekti sifatidagi shaxsiy sifatleri kommunikativ kompetentligining strukturaviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'z navbatida shaxsiy sifatlar ijtimoiy-psixologik malakalar va mantiqiy-kompozitsion malakalarni o'z ichiga oladi: shaxsning emotsional madaniyatini tavsiflaydi; voqelikni ishonchli tarzda aks ettiradigan matnlarni idrok etish va yaratishga yo'naltiradigan fikrlash madaniyati bilan bog'liq samarali og'zaki va yozma o'zaro faoliyatni ta'minlaydigan mantiqiy-axborot malakalar; shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va ularni davom ettirishga yo'naltiriladi; mantiqiy-kompozitsion malakalar, yoki bilish jarayonining spetsifik shakllari ko'rinishida amalga oshiriladi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda talabalar o'z kommunikativ qobiliyatlarini faol namoyon qilish va kommunikativ malakalarini sayqallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladigan muloqot vaziyatlari hamda shart-sharoitlari qo'llaniladi.

Model mazmuni esa talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni:

o'zini tushunish, boshqa shaxsni uning qadriyat-motivasion ustanovkalarini boshqalarga o'xshamaslik, atrofdagi insonlardan farq qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs sifatida qabul qilish, idrok etish malakasi;

shaxslar orasida o'zaro munosabatlarni amalga oshirishning milliy-madaniy o'ziga xosligi, ularning shaxslararo o'zaro faoliyatining an'analari va odatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

o'zlarini muayyan ijtimoiy-madaniy muhit, uning ideallari va me'yorlari bilan belgilashga o'rgatish;

kommunikativ xulq atvorni o'zi mustaqil tahlil qilish, o'zini tartibga solish va isloh qilish haqida tushuncha berish;

“muammoli vaziyatlarga nisbatan sezuvchanlikni” rivojlantirish, muammolarni yechish, shaxslarga qo'yilgan maqsadlarga erishish bilan ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Tadqiqot mazmuni bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislarining nutq kommunikativ malakalarini shakllantirishga, talabalarning muloqot bazasi deb hisoblanadigan nutq

madaniyatini takomillashtirishga yo‘naltirildi, va nutq texnikasi (usullari), muloqotning verbal va noverbal (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan) vositalarini o‘zlashtirish orqali amalga oshirildi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda talabalar faol dialogga jalb qilinishlari zarur: doim muloqotga jalb qilingan bo‘lishlari; o‘zlarining muloqotini amalga oshirish; atrofdagi odamlar bilan o‘zaro faoliyatni amalga oshirish; suhbatdosh bilan aloqani saqlab turish malakalarini amalga oshirish; talab qilinadigan vaziyatlarni boshqara olish.

Bunga asosan faol o‘qitish texnologiyalaridan, ya‘ni tahsil olishni ijtimoiy to‘laqonli hamkorlikda hamda individual o‘quv faoliyatida erishish bilan bog‘liq bo‘lgan mahsuldor ijodiy faoliyat sifatida tashkil qilish imkonini beradigan texnologiyalardan – tahsil oluvchilarning bilishga bo‘lgan motivatsiyasiga stimuly beradigan rolli o‘yinlar, treninglar va boshqa metodlardan foydalanish orqali erishiladi. Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari kommunikativ yo‘naltirilgan, bilimlarni yangilanishi va mantiqiy kompozitsion ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan hamda bilishga stimulyatsiya beradigan o‘yinlar, treninglardan foydalanishga qaratilgan muloqot madaniyati kursini bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tahsil oluvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlariga stimuly beradigan texnologiya sifatida rolli o‘yinlar quyidagi didaktik ustunliklar bilan tavsiflanadi: muammoni real hayotiy vaziyatga qo‘yishadi; hozirning o‘zida amalda bo‘lgan muammolarni qo‘llashadi; ishtirokchilar jalb etiladigan muammolar bilan ishlashadi; tahsil oluvchilarga emotsional va shaxsiy tomondan ta‘sir ko‘rsatishadi; his-tuyg‘ularga urg‘u berishadi; emotsiyalar ta‘siri ostida o‘qitishadi; muloqot amaliyotidan foydalaniladi.

Mashg‘ulotlarda rolli o‘yinlardan foydalanish munosabatlarda nomuvofiqliklarni bartaraf qilish, ijobiy emotsional muhitni yaratishga, muloqotning ijobiy tabiatiga erishishga va o‘zaro faoliyat muhitini yaratishga yordam beradi.

Tadqiqotda ijtimoiy mazmunga ega matnlardan olingan kommunikativ xulq-atvor namunalari katta e‘tibor berildi. Shaxslararo munosabatlar tajribasi turli muloqot vaziyatlarida, jumladan ularning kasbiy faoliyati sohasidagi vaziyatlarda turli ijtimoiy va yosh guruhlari til tashuvchilarining nutq madaniyatini kuzatish uchun, hamda muloqotning shaxsning emotsional va nutq madaniyati amalga oshadigan turli shakllar, turlarini o‘rganish uchun, yozuvchilar dialog va monologni ko‘plab mutaxassislarining kasbiy faoliyatining shakli va shart-sharoitlari sifatida qo‘llaydigan til vositalarini tahlil qilish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda o‘qitish vositalari sifatida qo‘llaniladigan materiallarga quyidagi talablar qo‘yiladi: o‘quv materialida kasbiy faoliyat sharoitlarida amalga oshiriladigan muloqot vaziyatlarining mavjudligi; o‘quv materialidagi monologik yoki dialogik muloqotni tasvirlashning ishonchliligi; kommunikativ kompetentlikka ega shaxslarning kommunikativ xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyati.

Shuningdek tadqiqotda, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlari rejalashtirish, ijtimoiy harakatchanlik qobiliyatlarini reflektiv baholash hamda tashkiliy-didaktik komponentlarining mobilligini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan. Aytish lozimki, refleksiya qilish qobiliyatiga ega pedagogik tahsil oluvchilar bilan uzluksiz ikki tomonlama aloqaga intiladi, olingan axborotni o‘quvchi nuqtai nazaridan ko‘ra olish va baholashga intiladi hamda ta‘lim-tarbiya jarayoni davomida o‘z ishlarini shunga muvofiq ravishda muvofiqlashga intiladi. Shu tariqa, reflektiv nuqtai nazar, munosabat muqarrar ravishda ta‘lim-tarbiyaning barcha aspektlariga, jumladan pedagogik muloqot jarayonlariga qorishib ketadi. Demak, refleksiya qilish qobiliyatini pedagogning kasbiy-kommunikativ

kompetentligi haqida fikr yuritish, hukm chiqarish imkonini beradigan va uning strukturasi shaxsiy blokni tashkil etadigan kasbiy ahamiyatli kommunikativ xossalari majmuiga kiritish mumkin.


Dissertatsiyaning “**Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental ishlar mazmuni, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil qilinishi va natijalari bayon qilingan.

Tajriba-sinov ishlarida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti “5112700-Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi” ta‘lim yo‘nalishidan 285 nafar talabalar ishtirok etgan.


Tajriba-sinov ishlari “5112700-Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Maktabgacha pedagogika” fani doirasida olib borildi. “Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha o‘quv dasturi tahlili asosida ushbu fanning oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlanganligini baholash bo‘yicha barcha mezonlar doirasida tajriba sinov natijalari tahlil qilindi. Tajriba yakunida eng so‘nggi mezon sifatida muloqotda hamdardlikni namoyish qilish malakasi mezoni bo‘yicha natijalar tahlil qilindi.

Olingan natijalar asosida muloqotda hamdardlikni namoyish qilish malakasini baholash ko‘rsatkichlari statistik taxlil qilinganda yakuniy so‘rovnomadagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari kirish so‘rovnomasi ko‘rsatkichlaridan farq qilishi (2-rasm), samaradorlikni 1,14 barobarga ortishi (3-rasm) va ishonch oraliqlarining bir biri bilan ustma ust tushmasligi, xi kvadrat mezoni bo‘yicha empirik qiymat kritik qiymatdan kattaligi N_1 gipotezani qabul qilishiga olib keladi. Bu esa Muloqotda hamdardlik namoyish qilish malakasini baholash ko‘rsatkichlarining yakuniy so‘rovnomasidagi natijalarning xaqqoniyligini isbotlaydi (2-, 3-rasmlarga qarang)



2-rasm. Muloqotda hamdardlik namoyish qilish malakasini baholash o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari.



3-rasm Muloqotda hamdardlik namoyish qilish malakasini baholashning samaradorlik ko'rsatkichlari .

Shunday qilib, muayyanlashtirilgan kommunikativ malakalar borasida kirish va yakuniy so'rovnomalarda olingan ma'lumotlar test ishtirokchilarida ularning rivojlanganlik darajasi o'zgargani haqida xulosa chiqarish imkonini berishini ta'kidlash lozim. Talabalarning yakuniy so'rovnomada kommunikativ malakalar darajasi kirish so'rovnomasidagiga qaraganda yuqoriroq bo'lgan sonini oshishi bu kommunikativ malakalarning rivojlanishida ijobiy dinamika borligi va ularning aktuallashgani va takomillashgani haqida dalolat beradi.

Test metodikalari majmui yordamida olingan ma'lumotlarning tahlili talabalarning umumiy kommunikativ malakalarining, ularning kirishimlilikining rivojlanishida, hamda talabalarning kommunikativ kompetentlilikining tashkil etadigan muayyanlashtirilgan kommunikativ malakalarning rivojlanishida ham ijobiy dinamikani kuzatish imkonini beradi. Yakuniy so'rovnomada kommunikativ malakalari va sifatleri kirish so'rovnomasidagiga qaraganda yuqoriroq darajalarda rivojlangan, rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishgan deb baholangan test

ishtirokchilari soni oshishi “Maktabgacha pedagogika” fanining materiallari talabalarning qiynalmasdan, bermalol, qulay o‘zaro faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ sifatlari, qobiliyatlari va malakalarining yig‘indisi sifatidagi kommunikativ kompetentligiga katta ta‘sir ko‘rsatdi, va uning rivojlanishi va takomillashishga yordam berdi deb qayd etish imkonini beradi.

Demak, baholash taomillarining ikki bloki yordamida olingan ma‘lumotlarning tahlili “Maktabgacha pedagogika” fani talabalarning kommunikativ kompetentligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani, va boshlang‘ich va yakuniy tashxis natijasida olingan ma‘lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish usullari talablarning kommunikativ kompetentligining o‘zgarishlari va rivojlanishini kuzatib borish imkonini beradi deb xulosa chiqarish imkonin beradi.

XULOSA

1. Ilmiy tadqiqot ishlarida kommunikativ kompetentlikni shaxsning o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarish uchun eng muhim kompetentliklardan biri sifatida qayd qilinadi. Tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikga shaxsning shaxsiy hususiyatlari va o‘zaro faoliyatning real vaziyatlarida muloqot tajribasi ta‘siri ostida ma‘lum tarzda rivojlanish natijasi sifatida qaraladi.

2. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari universal - kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni axborotga sezgirlik, amaliyotga bo‘lgan ijodiy munosabatiga aloqadorligini barqaror ta‘minlash hamda ta‘lim taraqqiyoti tendensiyalariga idientiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

3. Kommunikativ kompetentlik atrofdagi kishilar bilan o‘zaro faoliyatda tolerant xulq-atvor tamoyillariga amal qiladi, kasbiy faoliyat sohasida kishilarning guruhiy birligi va hamkorligiga hissa qo‘shadi, inson individualligining namoyon bo‘lish shakllarini, shaxsiy o‘z imkoniyat, qobiliyatlari hamda salohiyatlarining amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetentlikni kommunikativ malakalarning majmui deb tushunish ularning ma‘lum bir tarzda tizimlashtirilishini talab qiladi, va bu ularning kommunikativ va umumiy kasbiy kompetentlikning strukturasiidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash imkonini bergan.

4. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli motivatsion-rag‘batlantiruvchi yo‘nalganlikning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda qulay ta‘lim muhitini yaratish jarayonini ta‘limning istiqbolli maqsadlariga mos uyg‘unligini adekvat ta‘minlash asosida takomillashtirilgan.

5. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish muloqot yordamida amalga oshiriladi. Muloqot subyektining tanloviga qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, hodisa sifatida - birinchi navbatda o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy hisoblanadi, chunki uning maqsadlari va funksiyalari ijtimoiy hisoblanadi – u odamlarni kuzatishga, ularning sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirishga va o‘zaro tushunish va faoliyatning umumiy natijalariga erishishga yo‘naltirilgan, shuningdek, u shaxsning madaniyatga

kirishining, ijtimoiylashuvining, ularning psixik va ijtimoiy shakllanishining eng muhim omili bo'lib xizmat qilgan.

6. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari kommunikativ yo'naltirilgan, bilimlarni yangilanishi va mantiqiy kompozitsion ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan hamda bilishga stimulyatsiya beradigan o'yinlar, treninglardan foydalanishga qaratilgan muloqot madaniyati kursini bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan.

7. Kommunikativ kompetentlikni umumiy kasbiy kompetentlik tizimining bir komponenti sifatida o'rganishda, ushbu tizimning bir qismi sifatida, kommunikativ kompetentlik ma'lum bir strukturaviy murakkabligini nazarda tutishi shartligini va o'z navbatida, o'z quyiroq darajadagi quyi tizimlarni strukturaviy komponentlari sifatida o'z ichiga oladigan tizimni taqozo etishi shartligini aytish lozim, chunki har qanday tizim kommunikativ kompetentlikning strukturaviy komponentlar tizimini o'z ichiga olgan.

8. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlari rejalashtirish, ijtimoiy harakatchanlik qobiliyatlarini reflektiv baholash hamda tashkiliy-didaktik komponentlarining mobilligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

9. Kommunikativ kompetentlikning nazariy bloki muloqotga oid bilimlar to'plamini nazarda tutadi – muloqotning asosiy kommunikativ vazifalarini, usullari, bosqichlari, uslublarini, muloqotdagi o'rni nuqtai nazarlarini bilishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetentlik strukturasi amaliy blok ijtimoiy-psixologik, mantiqiy-kompozitsion va nutqiy kommunikativ malakalarini o'z ichiga oladi. Pedagogning muloqotga oson kirishib ketishi, reflektiv fikrlashi va empatiyasi mutaxassisning, xususan pedagogning samarali o'zaro faoliyatga yordam beradigan shaxsiy xossalari va sifatleri majmuining asosiy ishi aniqlangan.

TAVSIYALAR

1. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan o'quv materiallarining mazmunini amaliy mazmun bilan to'ldirish asosida ularning variativ va adaptiv variantlarini ishlab chiqish;

2. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha vebinar texnologiyalar va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish;

3. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlash, tanlovlar, seminar-treninglarni tashkil qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

НУРИТДИНОВА ХУРШИДА НОРПУЛАТОВНА

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за №В2023.3.PhD/Ped4820.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета www.tdpu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель: **Абдуллаева Барно Сайфутдиновна**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Шодиева Матлуба Жураевна**
доктор педагогических наук, профессор

Болтаева Мохичехра Жамшид кизи
кандидат педагогических наук, доцент

Ведущая организация: **Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете. (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор. дом 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована под № ____). (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор. дом 27. Тел.: (99871) 276-75-87; факс: (99871) 276-80-86.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2023 года).

З.Н.Мамаражабова
Председатель Научного Совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н., профессор

Р.Г.Исянов
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.п. н., доцент

М.Э.Мамаражабов
Председатель Научного семинара при
Научном Совете по присуждению
учёных степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в образовательный процесс внедряются инновационные модели развития коммуникативной компетентности студентов. ЮНЕСКО и Международная Ассоциация университетов (International Association of Universities – IAU) в программах развития коммуникативных навыков студентов⁴, применения образовательных технологий, организации процесса подготовки студентов к профессиональной коммуникации на основе инновационных подходов, расширения педагогических, дидактических возможностей обеспечения качества образования, инновационных направлений подготовки конкурентоспособных кадров, вариативных форм обучения и механизмов развития коммуникативной компетентности студентов.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования по внедрению прогрессивных моделей эффективной организации процесса развития коммуникативной компетентности студентов, реформированию стратегий создания кадровых ресурсов, моделированию образовательного процесса, совершенствованию образовательной деятельности, развивающей непрерывные профессиональные качества и компетенции, обогащению содержания требований к качеству образовательного процесса. В связи с этим уделяется внимание научно-исследовательской работе по выявлению тенденций развития коммуникативной компетентности студентов и профессиональной подготовки на основе международных квалификационных требований, повышению качества образования до международного уровня, проведению диагностики уровня развития коммуникативной компетентности студентов, активизации социальной коммуникативности, развитию коммуникативной компетентности студентов.

